# FARG‘ONA VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI (2020-yil yanvar-iyun oylari uchun dastlabki ma`lumot)

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o`z ta`sirini o`tkazadi.

2020-yil yanvar-iyun oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 634,1 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 39,7 mln. AQSh dollariga yoki 5,9 % ga kamaydi.

**TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)**




*Ma`lumot uchun: O`zbekiston Respublikasi tovarlar tashqi savdosi statistika ko`rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o`rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o`rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o`z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo`yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o`rtasida o`tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*

**FARG 'ONA VILOYATINING TASHQI AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO`LGAN DAVLATLAR (2020-yil yanvar-iyun, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)**

TSA da eksport hajmi 249,2 mln. AQSh dollariga (13,7 % ga kamaydi) va import hajmi 3384.9 mln. AQSh dollariga (o'sish sura'ti 100 % ) yetdi. Hisobot davrida – 135,7 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

| Top- 8 davlatlar | TSA | Eksport | Import | Ulushi, % da |
|---|---|---|---|---|
| Rossiya Federatsiyasi | 142,9 | 64,2 | 78,7 | 22,6 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 137,7 | 27,4 | 110,3 | 21,7 |
| Qozog`iston | 120,8 | 19,6 | 101,2 | 19,1 |
| Qirg'iz Respublikasi | 76,8 | 62,9 | 13,9 | 12,1 |
| Turkiya | 36,2 | 19,2 | 17,0 | 5,7 |
| Koreya Respublikasi | 14,1 | 4,1 | 10,0 | 2,2 |
| Tojikiston | 11,8 | 5,3 | 6,5 | 1,9 |
| Polsha | 11,6 | 11,1 | 0,4 | 1,5 |

So`nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo`llab-quvvatlash, import o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o`zgarishga erishildi.

Farg 'ona viloyatning, jahonning 68 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (22,6 %) Xitoy Xalq Respublikasida (21,7 %), Qozog`istonda (19,1 %), Qirg`iz Respublikasida (12,1 %), Turkiyada (5,7 %), Koreya Respublikasida (2,2 %), va Tojikiston (1,9 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo`shni davlatlar bilan o`zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko`rish mumkin.

Xususan, qo`shni davlatlar Qozog`iston va Qirg`iz Respublikalari bilan TSA da so`nggi yillarda katta o`zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so`nggi uch yilda TSA Qirg`iziston Tojikiston va Turkmaniston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo`shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Rossiya, Xitoy, Koreya Respublikasi va Turkiya davlatlari hissasiga to`g`ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo`yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan oltita davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, XXR (137,8 mln. AQSh dollari), Qozog`iston Respublikasi (120,8 mln. AQSh dollari), Rossiya Federatsiyasi (142,9 mln. AQSh dollari), Qirg`iziston (76,8 mln. AQSh dollari), Turkiya (36,2 mln. AQSh dollari) va Koreya Respublikasi (14,1 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 14 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

**FARG ‘ONA VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)**

| Davlatlar | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. |
|---|---|---|---|
| **Rossiya Federatsiyasi** | **203,1** | **132,0** | **142,9** |
| Eksport | 55,4 | 61,5 | 64,2 |
| Import | 147,7 | 70,5 | 78,7 |
| Saldo | -92,3 | -9 | -14,5 |
| **Xitoy Xalq Respublikasi** | **161,2** | **174,3** | **137,7** |
| Eksport | 56,6 | 56,4 | 27,4 |
| Import | 104,6 | 117,8 | 110,3 |
| Saldo | -48,0 | -61,4 | -82,9 |
| **Qozog`iston** | **145,5** | **85,5** | **120,8** |
| Eksport | 62,9 | 27,2 | 19,6 |
| Import | 82,6 | 58,3 | 101,2 |
| Saldo | -19,7 | -31,1 | -81,6 |
| **Qirg ‘iz Respublikasi** | **52,2** | **78,0** | **76,8** |
| Eksport | 33,3 | 58,4 | 62,9 |
| Import | 18,9 | 19,6 | 13,9 |
| Saldo | 14,4 | 38,8 | 49 |
| **Turkiya** | **28,3** | **55,1** | **36,2** |
| Eksport | 19,7 | 31,8 | 19,2 |
| Import | 8,6 | 23,3 | 16,9 |
| Saldo | 11,1 | 8,5 | 2,3 |
| **Koreya Respublikasi** | **13,8** | **15,4** | **14,1** |
| Eksport | 3,8 | 3,0 | 4,1 |
| Import | 10,1 | 12,4 | 10,0 |
| Saldo | -6,3 | -9,4 | -5,9 |
| **Turkmaniston** | **8,8** | **2,0** | **9,8** |
| Eksport | 0,3 | 0,5 | 0,2 |
| Import | 8,5 | 1,5 | 9,6 |
| Saldo | -8,2 | -1,0 | -9,4 |

**FARG 'ONA VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)**

| Davlatlar | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. |
|---|---|---|---|
| **Tojikiston** | **6,3** | **18,5** | **11,7** |
| Eksport | 2,9 | 6,6 | 5,2 |
| Import | 3,4 | 11,9 | 6,5 |
| Saldo | -0,5 | -5,3 | -1,3 |
| **Polsha** | **11,2** | **13,4** | **11,5** |
| Eksport | 10,4 | 9,3 | 11,1 |
| Import | 0,7 | 4,1 | 0,4 |
| Saldo | 10,5 | 5,2 | 10,7 |
| **Afg'oniston** | **2,7** | **3,1** | **6,6** |
| Eksport | 2,7 | 3,1 | 6,6 |
| Import | 0 | 0 | 0, |
| Saldo | 2,7 | 3,1 | 6,6 |
| **Germaniya** | **12,7** | **16,6** | **7,0** |
| Eksport | 0,8 | 0,5 | 0,9 |
| Import | 11,9 | 16,1 | 6,1 |
| Saldo | -1,1 | -15,6 | -5,2 |
| **Yaponiya** | **0,3** | **6,6** | **4,4** |
| Eksport | 0,2 | 0,2 | 0,2 |
| Import | 0,1 | 6,4 | 4,2 |
| Saldo | 0,2 | -6,2 | -4 |
| **Misr** | **0,3** | **5,9** | **4,4** |
| Eksport | 0,3 | 5,6 | 4,4 |
| Import | 0,02 | 0,3 | 0,02 |
| Saldo | 0,28 | 5,3 | 4,4 |
| **Chexiya Respublikasi** | **4,7** | **1,4** | **1,9** |
| Eksport | 1,0 | 1,0 | 1,2 |
| Import | 3,7 | 0,4 | 0,7 |
| Saldo | -2,7 | 0,6 | 0,5 |

**FARG ‘ONA VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)**

| Davlatlar | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. |
|---|---|---|---|
| **Hindiston** | **7,3** | **1,9** | **3,1** |
| Eksport | 0,07 | 0,005 | 1,2 |
| Import | 7,3 | 1,9 | 1,9 |
| Saldo | -7,2 | -1,9 | -0,7 |
| **Italiya** | **3,5** | **3,0** | **4,5** |
| Eksport | 0,3 | 0,4 | 0,1 |
| Import | 3,2 | 2,6 | 4,4 |
| Saldo | -2,9 | -2,2 | -4,3 |
| **Belarus Respublikasi** | **2,1** | **2,3** | **2,5** |
| Eksport | 1,3 | 0,7 | 1,5 |
| Import | 0,8 | 1,5 | 1,1 |
| Saldo | 0,5 | -0,8 | 0,4 |
| **Eron** | **3,3** | **2,7** | **0,8** |
| Eksport | 1,9 | 0,6 | 0,1 |
| Import | 1,4 | 2,1 | 0,7 |
| Saldo | 0,5 | -1,5 | -0,6 |
| **Latviya** | **6,5** | **12,5** | **1,0** |
| Eksport | 0,5 | 0,5 | 0,4 |
| Import | 6,0 | 12,0 | 0,6 |
| Saldo | -5,5 | -11,5 | -0,2 |
| **AQSH** | **0,06** | **0,11** | **0,3** |
| Eksport | 0,03 | 0,04 | 0,07 |
| Import | 0,03 | 0,07 | 0,3 |
| Saldo | 0 | -0,03 | -0,23 |
| **Vetnam** | **2,2** | **3,6** | **1,5** |
| Eksport | 2,1 | 3,6 | 1,3 |
| Import | 0,1 | 0,06 | 0,2 |
| Saldo | 2 | 3,5 | 1,1 |

**FARG‘ONA VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLAN-MASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAV-LATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyun, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)**

Viloyatimizda tashqi savdoni qo`llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo`yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2020-yil yanvar-iyun oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 58,5 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2019-yilga nisbatan ulushi 13,6 % ga oshgan.




Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2020-yil yanvar-may oylarida 2019-yilning mos davriga nisbatan kamaydi (24,2 % ga) va jami TSA dagi ulushi 41,5 % ni tashkil etdi.

## FARG‘ONA VILOYATNING EKSPORTI (2020-yil yanvar-iyun)

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning eksportyorlar soni 500 tani tashkil etib, ular tomonidan 249,2 mln. AQSh dollari qiymatidagi (2019-yilning mos davriga nisbatan 13,7 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta`minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 90,2 % ni tashkil etib, ular asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (41,5 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (37,8 %), nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari (10,9 %) hissasiga to`g`ri kelmoqda.

**EKSPORT TARKIBI (2020-yil yanvar-iyun, ulushi, % da)**




**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI (2020-yil yanvar-iyun)**

| XSST tarkibi | Mln. AQSh dollari | | | Umumiy hajmga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlat-lari | Boshqa davlatlar | Jami | MDH davlat-lari | Boshqa davlatlar |
| **Jami eksport** | **249,2** | **157,5** | **91,7** | **100** | **100** | **100** |
| shu jumladan: | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 94,1 | 87,8 | 6,3 | 37,8 | 55,7 | 6,9 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,24 | 0,04 | 0,2 | 0,1 | 0,0 | 0,2 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari | 27,2 | 20,9 | 6,3 | 10,9 | 13,3 | 6,9 |

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O`SISH SUR`ATLARI (2020-yil yanvar-iyun)**

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar | 3,1 | 2,1 | 1,0 | 1,2 | 1,3 | 1,1 |
| Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar | 0,4 | 0,4 | - | 0,0 | 0,3 | - |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar | 4,3 | 3,4 | 0,9 | 1,7 | 2,2 | 1,0 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 103,4 | 29,2 | 74,2 | 41,5 | 18,5 | 80,9 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 0,54 | 0,5 | 0,04 | 0,2 | 0,3 | 0,0 |
| Turli xil tayyor va boshqa buyumlar | 11,7 | 11,6 | 0,2 | 4,8 | 7,3 | 0,2 |
| Xizmatlar | 4,3 | 1,7 | 2,6 | 1,7 | 1,1 | 2,8 |

m

Boshqa mamlakatlarga eksportning yo`nalishi bo`yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlari hissasiga to`g`ri kelmoqda, keyingi o`rinlarda eksport hajmi bo`yicha asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari, turli xil tayyor buyumlar hamda mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallarga to`g`ri kelmoqda.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O`SISH SUR`ATLARI (2020-yil yanvar-iyun)**

| XSST tarkibi | 2019- yilning yanvar-iyunga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| **Jami** | **249,2** | **97,9** | **71,7** |
| shu jumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 94,1 | 81,7 | 35,9 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,24 | 140,7 | 100 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari | 27,2 | 384,9 | 180,1 |
| Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar | 3,1 | 37,4 | 21,3 |
| Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar | 0,4 | 219,7 | - |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar | 4,3 | 389,3 | 85,3 p |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 103,4 | 88,5 | 74,0 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 0,54 | 168,0 | 101,8 |
| Turli xil tayyor va boshqa buyumlar | 11,7 | 201,5 | 180,1 |
| Xizmatlar | 4,3 | 54,3 | 172,7 |

2020-yil yanvar-iyun oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko`rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o`zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta`kidlash joizki, 2019-yilning yanvar-iyuniga nisbatan, mashina va asbob-uskunalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlaridan tashqari barcha tovar guruhlarida pasayish kuzatildi.

**EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI (yanvar-iyun, % da)**

| XSST tarkibi | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 38,2 | 43,1 | 37,8 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,0 | 0,0 | 0,1 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari | 2,1 | 3,1 | 10,9 |
| Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar | 3,9 | 3,6 | 1,2 |
| Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar | 0,0 | 0,1 | 0,0 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar | 0,6 | 0,3 | 1,7 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 52,4 | 46,1 | 41,5 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 0,2 | 0,1 | 0,2 |
| Turli xil tayyor  va boshqa buyumlar | 1,5 | 2,1 | 4,8 |
| Xizmatlar | 1,1 | 1,6 | 1,7 |

**XSST BO`LIMI BO`YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2020-y. yanvar-iyun)**

| XSST bo`limi nomi | Mln. AQSh dollari | 2019-yilning mos davriga nisbatan, % da |
|---|---|---|
| **Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar** | | |
| Sabzavotlar va mevalar | 88,3 | 80,4 |
| Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 5,1 | 11,1 m |
| Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari) | 0,02 | 87,2 |
| Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 0,3 | 2,0 |
| Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari | 9,3 | 43,1 |
| Shakar va undan tayyorlangan mahsulotlar | 0,3 | 919,5 |
| **Ichimliklar va tamaki** | | |

**XSST BO`LIMI BO`YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2020-y. yanvar-iyun)**

| | | |
|---|---|---|
| Ichimliklar | 0,2 | 613,6 |
| Tamaki va tamaki mahsulotlari | 0,02 | 1,7 m |
| **Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari** | | |
| To`qimachilik tolalari va ularning chiqindilari | 5,7 | 156,8 |
| Hayvonlar va o`simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari | 15,9 | 736,2 |
| Metall rudalari va metall parchalari | 2,8 | 100 |
| Qog`oz massasi va makulatura | 1,8 | 169,0 |
| Moy olinadigan urug`lar va mevalar | 0,6 | 33,6 |
| **Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar** | | |
| Neft va neft mahsulotlari va shunga o`xshash materiallar | 3,1 | 30,2 |
| **Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar** | | |
| O`simlik moylari va yog`lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan) | 0,4 | 219,7 |
| **Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar** | | |
| Birlamchi shakldagi plastmassalar | 0,2 | 14,1 m |
| Organik kimyo moddalari | 0,2 | 100,0 |
| O`g`itlar | 3,0 | 413,9 |
| Efir moylari | 0,1 | 236,3 |
| Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar | 0,6 | 100,0 |
| **Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari** | | |
| To`qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o`xshash mahsulotlar | 99,3 | 75,8 |
| Metalldan tayyorlangan buyumlar | 0,4 | 14,5 m |
| Ruda bo`lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar | 3,0 | 166,0 |
| **Mashinalar va transport asbob-uskunalari** | | |
| Avtomobillar | 0,3 | 186,0 |
| Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyot qismlari | 0,02 | 73,8 |
| **Turli xil tayyor buyumlar** | | |
| Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari | 6,8 | 211,6 |
| Poyabzal | 2,8 | 216,7 |
| Har xil tayyor buyumlar | 2,0 | 128,0 |
| **Xizmatlar** | | |

| | | |
|---|---|---|
| Transport xizmatlari | 3.,6 | 108,3 |
| Safarlar (turizm) | 0.2 | 37,0 |
| Telekommunikatsiya, axborot va kompyuter xizmatlari | 0,07 | 107,9 |
| Moliyaviy xizmatlari | 0,4 | 58,1 |

**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyun, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)**

So`nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi oshdi va ularning jami eksportdagi ulushi 2018-yil yanvar-iyunidan 56,8 % dan 2020-yil yanvar-iyuniga nisbatan 63,2% ga yetdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 36,8 % ni tashkil etdi.







2020-yilning yanvar-iyun oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo`yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Qirg`iz Respublikasi (25,3 %), Rossiya Federatsiyasi (25,8 %), Xitoy Xalq Respublikasi (11,0 %), Turkiya (7,7 %), Qozog`iston (7,9 %), Polsha (4,5 %) va Tojikiston (2,1 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 84,3 foizni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo`yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan yetakchi bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasining ikki pog`onaga tushishi hisobiga, Qirg`iz Respublikasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni oldi.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo`yicha geografiyasi 2019-yining mos davriga nisbatan 49 davlatdan 52 davlatga ko’paydi.

**VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR-NING ULUSHI (2020-yil yanvar-iyun, % da)**




**FARG ‘ONA VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O`SISH SUR`ATLARI (yanvar-iyun)**

| Davlatlar | Mln.AQSH dollari | | O’sish sur’ati, % da | | O’rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2019-y. | 2020-y. | 2019-y. | 2020-y. | 2019-y. | 2020-y. |
| Rossiya Federatsiyasi | 61,5 | 64,2 | 111,1 | 104,4 | 1 | 1 |
| Qirg`iz Respublikasi | 58,4 | 62,9 | 175,5 | 107,7 | 2 | 2 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 56,4 | 27,4 | 99,6 | 48,6 | 3 | 3 |
| Qozog`iston | 27,2 | 19,6 | 43,2 | 72,0 | 5 | 4 |
| Turkiya | 31,8 | 19,2 | 161,2 | 60,4 | 4 | 5 |
| Polsha | 9,3 | 11,1 | 89,3 | 119,3 | 6 | 6 |
| Afg`oniston | 3,1 | 6,6 | 112,0 | 211,6 | 12 | 7 |
| Singapur | - | 5,5 | - | 100 | 20 | 8 |
| Tojikiston | 6,6 | 5,3 | 226,3 | 79,7 | 7 | 9 |
| Misr | 5,6 | 4,4 | 1,8m | 77,5 | 8 | 10 |
| Koreya Respublikasi | 3,1 | 4,1 | 81,0 | 134,3 | 13 | 11 |
| Ukraina | 5,3 | 2,9 | 231,4 | 55,0 | 10 | 12 |
| Bangladesh | 5,4 | 1,3 | 45,1 | 27,5 | 9 | 13 |

| Davlatlar | Mln.AQSH dollari | | O'sish sur'ati, % da | | O'rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2019-y. | 2020-y. | 2019-y. | 2020-y. | 2019-y. | 2020-y. |
| Belarus Respublikasi | 0,7 | 1,5 | 55,9 | 197,2 | 17 | 14 |
| Vyetnam | 3,6 | 1,3 | 170,7 | 37,0 | 11 | 15 |
| Hindiston | 0,005 | 1,2 | 7,2 | 20,8m | 19 | 16 |
| Chehiya | 1,0 | 1,2 | 95,3 | 125,5 | 15 | 17 |
| Marokesh | 1,2 | 1,2 | 266,6 | 96,3 | 14 | 18 |
| Germaniya | 0,5 | 0,9 | 58,8 | 181,5 | 18 | 19 |
| Portugaliya | 0,8 | 0,8 | 152,2 | 91,3 | 16 | 20 |

**FARG ‘ONA VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O`SISH SUR`ATLARI (yanvar-iyun)**

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari, yengil sanoat va shunga o`xshash materiallar, material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlar kiradi.

| XSST tarkibi | Qirg`iz Respublikasi | | Rossiya Federatsiyasi | | XXR | | Turkiya | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2019-y. | 2020-y. | 2019-y. | 2020-y. | 2019-y. | 2020-y. | 2019-y. | 2020-y. |
| **Jami eksport** | **58,4** | **62,9** | **61,5** | **64,2** | **56,4** | **27,4** | **31,8** | **19,2** |
| shu jumladan: | | | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 51,5 | 37,5 | 25,2 | 31,6 | 1,3 | 0,2 | 14,2 | - |
| Ichimliklar va tamaki | - | 0,01 | | | - | 0,03 | - | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari | 3,4 | 16,4 | 1,2 | 3,9 | 0,5 | 2,4 | 0,01 | 1,4 |
| Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar | 1,1 | 0,4 | 1,5 | - | - | - | - | - |
| Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar | - | - | 6,9 | - | - | - | - | - |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar | 0,5 | 2,1 | 0,02 | 0,01 | - | - | - | 0,04 |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 1,1 | 2,4 | 26,4 | 20,9 | 54,5 | 24,8 | 17,6 | 17,8 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 0,01 | 0,05 | 0,1 | 0,3 | - | - | - | - |
| Turli xil tayyor va boshqa buyumlar | 0,8 | 3,9 | 4,0 | 6,1 | | - | - | - |
| Xizmatlar | 0,05 | 0,07 | 3,0 | 1,4 | | - | - | - |

## XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (yanvar-iyun, ulushi, % da)




Xizmatlar eksporti hajmi 4,3 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 1,7 % ini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 7,0 % ga kamayganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (83,9 %) va moliyaviy (10,5 %) xizmatlari hissasiga to`g`ri kelgan. Shu bilan birga telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (1,8 %), boshqa tadbirkorlik bilan bog`liq xizmatlar (3,8 %) ni tashkil etgan.

**MEVA-SABZAVOT MAHSULOT-LARI EKSPORTI**

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo`lgan 88,5 mln. dollar qiymatli 98,9 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2019-yilning mos davriga nisbatan 21,5 mln. AQSh dollarida pastlashish kuzatilib, 19,5 % ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 22,6 mln. AQSh dollariga teng 47,5 ming tonna sabzavot, shuningdek, 61,9 mln. AQSh dollari qiymatidagi 47,2 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

Hukumat tomonidan qishloq xo`jaligi va bog`dorchilikni rivojlantirishga katta e`tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 35,4 % ni tashkil etdi.

**MEVA-SABZAVOT MAHSULOT-LARI EKSPORTI (2020 yil yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)**




Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qirg`iz Respublikasi (50,9 %), Rossiya Federatsiyasi (25,4 %) va Qozog`iston (20,6 %) davlatlari hissasiga to`g`ri kelgan.

## MEVA - SABZAVOT MAHSULOT-LARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (yanvar-iyun)

| Davlatlar | 2019-yil | | | 2020-yil | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | ming tonna | mln. AQSh dollari | ulushi*, % da | ming tonna | mln. AQSh dollari | ulushi*, % da |
| Rossiya Federatsiyasi | 38,6 | 24,7 | 22,5 | 38,4 | 31,2 | 35,3 |
| Qirg‘iz Respublikasi | 24,3 | 52,1 | 47,4 | 29,9 | 37,3 | 42,1 |
| Qozog‘iston | 37,7 | 24,4 | 22,2 | 26,9 | 17,1 | 19,3 |
| Afg‘oniston | 0,7 | 0,5 | 0,5 | 0,6 | 0,2 | 0,2 |
| Belarus | 0,3 | 0,1 | 0,1 | 0,2 | 1,1 | 1,2 |
| XXR | 0,3 | 1,3 | 1,2 | 0,07 | 0,2 | 0,2 |
| Pokiston | 0,2 | 0,1 | 0,1 | 0,07 | 0,06 | 0,1 |
| Tojikiston | 1,4 | 1,6 | 1,5 | 0,06 | 0,05 | 0,1 |
| Ukraina | 7,9 | 3,0 | 2,7 | 2,1 | 1,1 | 1,2 |
| Turkiya | 0,9 | 0,8 | 0,7 | - | - | - |
| Koreya Respublikasi | 0,1 | 0,3 | 0,3 | 0,2 | 0,5 | 0,6 |
| Gruziya | 0,08 | 0,02 | 0,0 | - | - | - |
| Germaniya | 0,04 | 0,02 | 0,0 | - | - | - |
| BAA | 0,05 | 0,09 | 0,1 | 0,05 | 0,1 | 0,1 |
| Turkmaniston | 0,3 | 0,03 | 0,0 | - | - | - |
| Chehiya | 0,3 | 0,05 | 0,0 | - | - | - |
| Bo‘shqalar | 1,3 | 0,8 | 0,7 | 0,4 | 0,2 | 0,2 |

**-qiymat ifodasidan*

**TO`QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI**

Eksport qilingan to`qimachilik mahsulotlari tarkibida paxtadan yigirilgan ip (40,9 %), tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (2,7 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 15 turdagi to`qimachilik mahsulotlari dunyoning 35 ta davlatiga eksport qilindi.

To`qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining kamayishi bevosita paxta xomashyosi o`rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo`shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko`rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 108,8 mln. AQSh dollarlik to`qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 43,6 % ini tashkil etdi va o`tgan yilga nisbatan 19,3 % ga kamaydi.

**TO`QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)**

| Tovar nomi | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. |
|---|---|---|---|
| Paxtadan yigirilgan ip | 127,6 | 115,5 | 80,5 |
| Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari | 2,4 | 3,2 | 6,8 |
| Gilamlar | 0,04 | 0,03 | 0,006 |
| Naqshli mato | 1,2 | 1,6 | 2,6 |
| Boshqa to`qimachilik mahsulotlari | 2,3 | 1,9 | 2,3 |
| Paxtadan gazlamalar | 11,4 | 9,7 | 12,1 |
| Ipak va ipak mahsulotlari | 1,5 | 1,5 | 2,9 |
| Paxta mahsulotlari | 1,2 | 1,3 | 1,6 |

**DAVLATLAR KESIMIDA TO`QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)**

Viloyatning to`qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag`batlantirish borasidagi amaliy ishlari naijasida, mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

To`qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Xitoy Xalq Respublikasi (26,1 mln. AQSh dollari ), Rossiya Federatsiyasi (25,8 mln. AQSh dollari ), va Turkiya (17,8 mln.) davlatlari hissasiga to’g’ri keldi.

| Davlatlar | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. |
|---|---|---|---|
| **Rossiya Federatsiyasi** | 34,9 | 29,2 | 25,8 |
| **XXR** | 55,4 | 54,9 | 26,1 |
| **Turkiya** | 18,8 | 17,6 | 17,8 |
| **Qirg`iz Respublikasi** | 0,7 | 0,7 | 2,6 |
| **Qozog’iston** | 0,6 | 0,6 | 0,5 |
| **Polsha** | 8,6 | 7,0 | 10,9 |
| **Ukraina** | 1,4 | 1,9 | 1,6 |
| **Eron** | 0,9 | 0,2 | 0,1 |
| **Tojikiston** | 0,03 | 0,8 | 0,2 |
| **Misr** | 0,3 | 5,6 | 4,4 |
| **Belarus Respublikasi** | 1,3 | 0,6 | 1,2 |
| **Ozarbayjon** | 0,09 | 0,2 | 0,3 |
| **Vyetnam** | 0,8 | 1,5 | 0,06 |
| **Italiya** | 0,3 | 0,3 | 0,1 |
| **Korea Respublikasi** | 3,7 | 2,6 | 2,5 |
| **Belgiya** | 1,2 | 0,7 | 0,6 |
| **Germaniya** | 0,8 | 0,5 | 0,9 |
| **Marokesh** | 0,4 | 1,2 | 1,1 |
| **Bangladesh** | 12,0 | 5,4 | 1,5 |

# FARG‘ONA VILOYATINING IMPORTI (2020-yil yanvar-iyun)

**IMPORT TARKIBI (2020-yil yanvar-iyun, ulushi, % da)**

2020-yil yanvar-iyun oylarida import hajmi 384,9 mln. AQSh dollarini va 2019-yilning mos davriga nisbatan 100 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mineral yoqilg‘I, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar (27,6%), mashina va asbob uskunalar (26,3 %), oziq-ovqat mahsulotlari (12,5 %) hamda kimyoviy vositalar (7,3 %) hisobiga to`g`ri keldi.




Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko’ra, 2020-yilning yanvar-iyunida import qilingan tovarlar hajmi, o’tgan yilning mos davriga nisbatan 2,9 mln. AQSh dollariga kamaydi va 379,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 5,8 mln. AQSh dollariga yetdi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLAT-LARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyun, mln. AQSh dollari, ulush % da)**

| XSST tarkibi | Mln. AQSh dollari | | | Umumiy hajmga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| **Jami import** | **384,9** | **213,6** | **171,3** | **100** | **100** | **100** |
| shu jumladan: | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 47,9 | 39, | 8,2 | 12,5 | 18,6 | 4,8 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,006 | 0,001 | 0,004 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari | 6,5 | 5,6 | 0,9 | 1,7 | 2,6 | 0,5 |
| Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar | 106,5 | 106,3 | 0,2 | 27,7 | 49,7 | 0,1 |
| Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar | 7,3 | 7,3 | - | 1,9 | 3,4 | - |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar | 28,0 | 7,9 | 20,1 | 7,3 | 3,7 | 11,7 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 69,4 | 42,3 | 27,1 | 18,1 | 19,8 | 15,8 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 101,3 | 3,0 | 98,3 | 26,3 | 1,4 | 57,4 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 12,0 | 1,4 | 10,6 | 3,1 | 0,7 | 6,2 |
| Xizmatlar | 5,8 | 0,007 | 5,8 | 1,5 | 0,0 | 3,4 |

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORTNING O`SISH SUR’ATLARI (2020-yil yanvar-iyun)**

a

Importning eng katta ulushi, jumladan, mineral yoqilg‘I yog‘lash moylari va shunga o‘xshash ( 49,7 %), sanoat mahsulotlari (19,8 %),oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (18,6 %) MDH mamlakatlariga to`g`ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (57,6 %) va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar (6,2 %), hissasiga to`g`ri keladi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyun, mln. AQSh dollari, ulush % da)**

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORTNING O`SISH SUR'ATLARI (2020-yil yanvar-iyun)**

| XSST tarkibi | 2019-yil yanvar-mayiga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| **Jami** | **100,0** | **128,8** | **78,2** |
| **shu jumladan:** | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 145,2 | 181,0 | 74,2 |
| Ichimliklar va tamaki | 100 | 100 | 100 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari | 45,3 | 42,6 | 76,4 |
| Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar | 265,1 | 265,7 | 133,3 |
| Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar | 202,9 | 202,9 | - |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar | 88,1 | 77,9 | 92,9 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 61,7 | 59,3 | 65,8 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 75,4 | 59,8 | 76,0 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 98,4 | 172,4 | 93,1 |
| Xizmatlar | 193,9 | 6,4 | 201,1 |

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko`rsatdiki, 2018-yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar 3,9 % dan 12,5 % ga ko'paydi, mineral yoqilg'I, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar 42,7 % dan 27,7 % ga kamaydi.

| XSST tarkibi | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| **shu jumladan:** | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 3,9 | 8,6 | 12,5 |
| Ichimliklar va tamaki | - | - | 0,0 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari | 2,9 | 3,7 | 1,7 |
| Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar | 42,7 | 10,4 | 27,7 |
| Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar | 0,3 | 0,9 | 1,9 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar | 4,5 | 8,3 | 7,3 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 20,7 | | 18,1 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 21,9 | 34,9 | 26,3 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 2,4 | 3,2 | 3,1 |
| Xizmatlar | 0,7 | 0,8 | 1,5 |

## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI (2020-yil yanvar-iyun)




Hisobot davri yakunlariga ko`ra, import bo`yicha hamkor davlatlar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 28,7 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini (20,5 %) ortda qoldirgan holda, birinchi o`rinni egalladi.

## TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR (yanvar-iyun)

| Davlatlar | Mln. AQSH dollari | | O`sish sur`ati, % da | | O`rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2019-y. | 2020-y. | 2019-y. | 2020-y. | 2019-y. | 2020-y. |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 117,8 | 110,3 | 112,7 | 93,6 | 1 | 1 |
| Qozog`iston | 58,3 | 101,2 | 70,6 | 173,6 | 3 | 2 |
| Rossiya Federatsiyasi | 70,5 | 78,5 | 47,7 | 111,8 | 2 | 3 |
| Turkiya | 23,3 | 16,9 | 271,6 | 72,8 | 4 | 4 |
| Qirg'iz Respublikasi | 19,5 | 13,9 | 103,1 | 71,2 | 5 | 5 |
| Koreya Respublikasi | 12,4 | 9,9 | 123,0 | 80,6 | 7 | 6 |
| Turkmaniston | 1,5 | 9,6 | 18,1 | 619,8 | 13 | 7 |
| Tojikiston | 11,9 | 6,5 | 347,0 | 54,4 | 8 | 8 |
| Germaniya | 16,1 | 6,1 | 135,4 | 37,9 | 6 | 9 |
| Italiya | 2,6 | 4,4 | 79,3 | 172,7 | 11 | 10 |
| Yaponiya | 6,4 | 4,2 | 4,5 p | 65,3 | 9 | 11 |
| Litva | 5,6 | 2,4 | 165,7 | 44,8 | 10 | 12 |
| Ispaniya | 0,4 | 1,9 | 75,8 | 492,7 | 20 | 13 |
| Ekvador | 1,1 | 1,9 | 9,8 p | 179,9 | 16 | 14 |
| Hindiston | 1,9 | 1,9 | 26,8 | 97,5 | 12 | 15 |
| Shveysariya | 1,3 | 1,8 | 49,8 | 145,1 | 15 | 16 |
| Avsrtiya | 0,5 | 1,5 | 467,1 | 315,3 | 18 | 17 |
| Ozarbayjon | 0,1 | 1,5 | 183,0 | 315,3 | 19 | 18 |
| Belarus | 1,5 | 1,1 | 200,1 | 1319,4 | 14 | 19 |
| Gonkong | 0,7 | 1,1 | 642,7 | 72,5 | 17 | 20 |

2019-yil bilan taqqoslaganda import bo`yicha eng yuqori oltilikda o`zgarish kuzatilmadi.

**FARG‘ONA VILOYATI IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2020-yil yanvar-iyun, % da)**

2020-yil yanvar-iyun oylari yakuni bo’yicha Fargona viloyati tomonidan 59 davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.




Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy, Qozog‘iston, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Qirg‘iziston, Koreya Respublikasi va Tukmaniston) jami importning 90,2 % ini tashkil qiladi, bu 347,2 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.

Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy, Qozog‘iston, Koreya, Rossiya, tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

2020-yil yanvar-iyun oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi

**XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI (yanvar-iyun, ulushi, % da)**

5,8 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 1,5 % ini tashkil etdi va o`tgan yilga nisbatan 93,9 % ga o’sdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi savdo va tehnik muhandislik xizmati va boshqa xizmatlaridan iborat bo`ldi.




**QURILISH MATERIALLARI IMPORTI DINAMIKASI (yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)**

2020-yil yanvar-iyun oylari yakuni bilan 22,8 mln. AQSh dollari miqdorida qurilish materiallari importi amalga oshirilgan bo`lib, umumiy import hajmining 5,9 % ini tashkil qildi.

Import qilingan qurilish materiallari tarkibida yog`och va yog`och mahsulotlari (46,9 %), shisha va shisha buyumlar (13,1 %), sement (38,1 %), hamda asbest (1,7 %) asosiy ulushni egallagan.

2020-yil yanvar-iyun yakunlariga ko`ra, 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan pasayish (44,7 %) qayd etildi.

**QURILISH MATERIALLARI IMPORTI (2020-yil yanvar-iyun)**




Qurilish materiallari importi, asosan yurtimizda olib borilayotgan bunyodkorlik, keng ko`lamdagi qurilish-rekonstruksiya ishlarini amalga oshirilishiga qaratilmoqda.

| Qurilish materiallari | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. |
|---|---|---|---|
| Yog`och va yog`och mahsulotlari | 14,2 | 23,4 | 10,7 |
| Shisha va shisha buyumlar | 2,0 | 2,7 | 3,0 |
| Sement | 15,9 | 22,0 | 8,7 |
| Asbest | 7,4 | 2,9 | 0,4 |

Shu o`rinda ta`kidlash lozimki, davlatimiz tomonidan qurilish mahsulotlari importi o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda ichki bozorni sifatli va arzon qurilish materiallari bilan ta`minlash bo`yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo ‘limi.
Tel.:(73)-249-87-18**